


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-fevral)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1287,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 105,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 58,2 % ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili , elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 12,1 % ga, tog' -kon sanoatining 7,0 % ga o'sishi sabab bo'ldi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 49,1 % ga, hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 2,5 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat




2021-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 523,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 40,6 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 16,6 mlrd. so'm (jamiga nisbata ulushi 3,2%), o'rta-yuqori texnologiyali 11,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 114,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 21,9 %), quyi texnologiyali 380,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 72,8 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 118,4 ming l 100 % spirti (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 32,7 % ga kamaygan), 62,9 tonna bint (56,3 %), 6,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (11,3 %) ishlab chiqarilib yuqori kamayish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	7,3	6,5	-0,8
Aroq, ming l. 100% spirt	175,9	118,4	-57,5
Sellyuloza, ming tonna 90%	321,4	260,6	-60,8
Paxta tolasi, mingtonna	9,9	5,2	-4,7
Yigirilgan ip, tonna	450,6	469,3	18,7
Paxta chigiti, ming tonna	15,7	8,6	-7,1
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,9	0,5	-0,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	5,3	3,6	-1,7
Etilen polimer qoplar, ming tonna	1,7	1,9	0,2
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	87,6	66,0	-21,6
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	30,3	26,2	-4,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

6,5
ming tonna



Aroq

118,4
ming l. 100 % spirt




Sellyuloza

260,6
ming tonna 90 %



Paxta chigiti

8,6
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

0,5
ming tonna



Yigirilgan ip

469,3
tonna



Paxta tolasi

5,2
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

1,9
ming tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

66,0
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

26,2
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

3,6
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
2021- yilning yanvar-fevral oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 748,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (58,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	87,6	66,0	-21,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2839,6	3006,7	167,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



2021-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 49,1 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 346,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,7 % ni (2020-yil yanvar-fevral oyida 6,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 35,2 % ni, shuningdek, Mirzaobod tumani 13,7 % ni, Guliston shahri 13,4 % ni hamda Sayxunobod tumani 7,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (110,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (212,0 %), Sardoba tumanida (133,7 %) va Sirdaryo tumanida (121,0 %), Sayxunobod tumanida (114,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	346,3	100,0	110,1
Guliston sh.	46,5	13,4	84,3
Shirin sh.	4,7	1,3	94,7
Yangiyer sh.	23,1	6,7	87,0
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	21,4	6,2	89,7
Guliston	8,9	2,6	75,7
Mirzaobod	47,3	13,7	212,0
Oqoltin	10,4	3,0	96,0
Sardoba	13,5	3,9	133,7
Sayxunobod	26,3	7,6	114,2
Sirdaryo	121,8	35,2	121,0
Xovos	22,4	6,5	88,4

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 123,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 46,6%), Sirdaryo tumani (43,5 %), Guliston shahri (30,1 %), hamda Yangiyer (7,5 %) shaharlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar-fevral mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	1287,8	105,3
Guliston sh.	94,0	100,1
Shirin sh.	706,4	112,1
Yangiyer sh.	74,8	101,5
tumanlar:		
Boyovut	73,6	130,2
Guliston	13,3	36,4
Mirzaobod	73,2	132,8
Oqoltin	21,5	44,7
Sardoba	13,5	51,1
Sayxunobod	41,6	103,6
Sirdaryo	148,8	85,0
Xovos	73,6	91,7

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahriga (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,9 %), Sirdaryo tumani (11,6 %), Guliston shahri (7,3 %), Yangiyer shahri (5,8 %), hamda Mirzaobod tumani (5,7 %), Boyovut tumani (5,7 %), va Sayxunobod (3,2 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (2,1 %), Oqoltin tumani (1,7 %) Sardoba tumani (1,0 %) hamda Guliston tumaniga (1,0 %) to'g'ri kelmoqda.




SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish
(2021-yil yanvar-fevral oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	1508,5	405,6
Guliston sh.	1032,1	510,5
Shirin sh.	37574,9	248,6
Yangiyer sh.	1708,0	526,8
tumanlar:		
Boyovut	564,1	164,2
Guliston	181,1	121,9
Mirzaobod	986,8	637,9
Oqoltin	411,2	198,5
Sardoba	203,3	202,8
Sayxunobod	535,2	338,2
Sirdaryo	1152,9	943,1
Xovos	279,7	232,7

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarning o'sishi (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da)



Sanoat ishlab chiqarish




Xalq iste'mol mollari

**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan
mahsulotlar hajmi va ulushi**
(2021-yil yanvar-fevral oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatanulushi, % da
Sirdaryo viloyati	330,6	25,7
Guliston sh.	37,6	40,0
Shirin sh.	4,6	0,6
Yangiyer sh.	22,7	30,3
tumanlar:		
Boyovut	66,2	89,9
Guliston	13,3	100,0
Mirzaobod	57,5	78,5
Oqoltin	9,0	42,0
Sardoba	13,5	100,0
Sayxunobod	28,2	67,8
Sirdaryo	63,9	42,9
Xovos	14,1	52,5

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 300,6mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0%), Oqoltin tumani (100,0 %), Guliston tumani (100,0 %), Xovos tumani (71,3 %), Sayxunobod tumani (70,0 %) Guliston shahri (67,0 %), hamda Sirdaryo (41,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yangiyer shahri (41,7 %), Mirzaobod tumani (24,5 %), Boyovut tumani (23,6 %), hamda Shirin shahrida (1,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2147 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 559 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 %) Guliston shahriga, 362 tasi (16,9 %) Sirdaryo tumaniga, 190 tasi (8,8 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 92 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 63 foizi Sirdaryo tumani, Oqoltin tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23